

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.B.02.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

ALIMOVA LUIZA XALILOVNA

**QUYI ZARAFSHON GERPETOBIONT QO'NG'IZLARINING
TAKSONOMIK XILMA-XILLIGI VA EKOLOGIYASI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по биологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on biological sciences**

Alimova Luiza Khalilovna

Quyí Zarafshon gerpetobiont qo'ng'izlarining taksonomik xilma-xilligi va ekologiyasi 3

Алимова Луиза Халиловна

Таксономическое разнообразие и экология герпетобионтных жуков Нижнего Зеравшана 21

Alimova Luiza Khalilovna

Taxonomic Diversity and Ecology of Herpetobiont Beetles in the Lower Zeraвшan..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.B.02.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

ALIMOVA LUIZA XALILOVNA

**QUYI ZARAFSHON GERPETOBIONT QO'NG'IZLARINING
TAKSONOMIK XILMA-XILLIGI VA EKOLOGIYASI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/B658 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xalimov Fazlitdin Zakirovich
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Izzatullayev Zuvayd
biologiya fanlari doktori, professor

Mirzayeva Gulnara Saidarifovna
biologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.02.08 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «10» oktabr kuni soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15-uy. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti binosi 2-qavat majlislar zali. Tel.: (+99866) 239-11-40, faks (+99866) 239-11-51, E-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (110 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet hiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «26» sentabr kuni tarqatildi.
(2023-yil «26» sentabr № 3 sonli reyestr bayonnomasi)



T.F.Rajabov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d.

M.S.Kuziyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.d. (PhD), dotsent

Z.T.Rajamurodov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida hasharotlar sonining kamayib borish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ma'lumki, hasharotlar murakkab ozuqa to'rlarini hosil qilib, tabiiy jamoalarning tuzilmasi va faoliyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega hamda boshqa organizmlar koevolutsiyasiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Lekin, ko'plab olimlarning ta'kidlashicha, hasharotlarning soni yiliga 1-2% ga kamayib bormoqda. Keyingi 150 yilda dunyoda hasharotlarning 5-10% i, yoki 250000 dan 500000 gacha turi yo'qolib ketdi¹. Qo'ng'izlar yoki qattiqqanotlilar hasharotlar turkumining eng yuqori xilma-xillikka ega va biologik progress holatida bo'lgan guruhi bo'lib, barcha hasharotlarning 38% ini (387100 tur) tashkil etadi. Turlar tarkibi va ekologik xilma-xilligining yuqoriligi bilan ajralib turadigan gerpetobiontlar tuproqda o'simliklar tomonidan yetkazib beriladigan ozuqa moddalarning harakatlanishida qatnashadi va trofik aloqalar tizimining muhim va ajralmas qismidir. Ularning bir qismi yirtqichlardan iborat bo'lib, zararkunanda hasharotlar va begona o'tlar sonini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etsa, boshqa guruhi qishloq xo'jalik ekinlarining zararkunandalari sifatida katta iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda gerpetobiont qattiqqanotlilarning xilma-xilligi, alohida hududlar faunasi va uning shakllanish qonuniyatlari, tarqalishi, zoogeografik tavsifi, tabiiy biosenozlarda va ekin maydonlaridagi ahamiyatini aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada gerpetobiont qo'ng'izlarning cho'l biosenozlari va agrosenozlardagi tur tarkibini, taksonomik va ekologik tuzilmasini, mavsumiy dinamikasini tahlil qilish, gerpetobiontlar faunasida yuzaga chiqayotgan o'zgarishlarni, kamyob va yo'qolib borayotgan turlarini aniqlash, ularni muhofaza qilish choralarini ishlab chiqish, cho'l biosenozlari gerpetobiontlar faunasining kelib chiqishi va shakllanishini o'rganishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda gerpetobiont qo'ng'izlar asosiy taksonlarining xilma-xilligi, turli xil landshaftlar va alohida biosenozlar bo'ylab tarqalishi, madaniy ekinlar, mevali bog'lar agrosenozlaridagi gerpetobiontlar faunasi, gerpetobiont qo'ng'izlarning qishloq xo'jaligi ekinlari zararkunandalari hamda zararkunandalarning entomofaglari sifatidagi rolini aniqlash hamda gerpetobiontlardan ekologik monitoringda foydalanish texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida² «...atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish» kabi vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, O'zbekistonning cho'l zonalarini va yondosh agrosenozlarda gerpetobiont qo'ng'izlarning xilma-xilligi, ekologiyasi va biosenozlardagi ahamiyatini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Cardoso, P., Barton, P.S., Birkhofer, K., Chichorro, F., Deacon, C., Fartmann, T., et al. Scientists' warning to humanity on insect extinctions. *Biological Conservation*, 2020, V. 242, 108426. <https://doi.org/10.1016/j.biocon.2020.108426>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 19-sentyabrdagi O'RQ-408-son "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-noyabrdagi 914-son "Hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to'g'risida"gi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 343-son "Atrof-muhitning ifloslanish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Gerpetobiont qo'ng'izlar faunasi, taksonomiyasi va ekologiyasiga oid ilmiy ma'lumotlar xorijlik olimlar A.D. Lees (1943), H.U. Thiele (1977), I.X. Sharova (1981, 1987), G.V. Nikolayev (1987), T. Zetto Brandmayr va I. Marano (1994), S. Venn (2000), J. Tooley va F. Brust (2002), K.V. Makarov (2002), L. Winder (2005), P. Jedlička va J. Frouz (2007), M. Traugott (2008, 2015), J.R. Bell (2010), D.A. Bohan (2011), I.V. Shoxin (2012), O.G. Guseva (1988, 2013), A.C. Ritter (2013), M. Tóth (2013), Trichard (2014), A. Rouabah (2014), I. Zenner de Polanía et al. (2014), A. Rusch (2015), S. Saussure (2015), S.L. Ball (2015), G.M. Abduraxmanov (2016), S. Moritz (2017), M.C. Russell (2017), S. Sharavari (2017), Z. Ba'tori (2019), I. Chigray (2020), S.M. Murphy (2020), T.T. Høye (2020), W.G. van Herk (2021), L. Serée (2021), S. Poggi (2021), C. Chigray (2018, 2019, 2022), M.V. Nabozhenko (2006, 2022), M. Açıkgoz (2022), G. Pozsgai (2022), K. Singleton (2022), T. Tolasch va J. Steidle (2022), R. Vernon va W.J. van Herk (2022), E.S. Waite (2022) va boshqalarning ishlarida aks etgan.

O'rta Osiyo va O'zbekiston gerpetobiont qo'ng'izlarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar V.S. Plotnikov (1911, 1914, 1926, 1932), V.P. Nevskiy (1929, 1932, 1937), Z. Kaszab (1940), V.V. Yaxontov (1953), O.L. Kryjanovskiy (1953), M.S. Gilyarov (1949, 1963, 1964), N.G. Skopin (1961, 1964, 1968), G.S. Medvedev (1959, 1961, 1965, 1970), T. Safarov (1962), R.A. Alimjonov (1953, 1966, 1975), A.G. Davletshina (1979, 1984), A. Dadamirzayev (1979), T. Kaltayev (1975, 1982), V.I. Chikatunov (1981), L.V. Yegorov (1989, 2004, 2006), A. Khamraev (2003), A.V. Kreysberg (2004), F.Z. Xalimov (2020a, 2020b, 2020s), F.Z. Xalimov, E.N. Abdullayev va D. Zokirova (2020) tomonidan o'tkazilgan.

Ilmiy manbalar tahlili, O'zbekistonda gerpetobiont qo'ng'izlar faunasi bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar hajmi katta emasligini, mavjud tadqiqotlar Respublikamiz hududini to'la qamrab olmaganligini ko'rsatadi. O'tkazilgan tadqiqotlar gerpetobiontlarning faqat ayrim guruhlarinigina qamrab olgan. Quyi Zarafshon biosenozlari uchun esa bunday tadqiqotlar olib borilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlar rejasiga muvofiq Bio-01-2021 «Janubiy g'arbiy O'zbekiston hayvonot dunyosining faunasi, ekologiyasi va muhofazasi hamda ulardan rasional foydalanish» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Quyi Zarafshon biosenozlarida tarqalgan gerpetobiont qattiqqanotli hasharotlarning ekologik xususiyatlari va mavsumiy dinamikasini baholash hamda taksonomik tarkibini, kamayib borayotgan va noyob turlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Quyi Zarafshon biosenozlari gerpetobiont qo'ng'izlarining taksonomik tarkibini aniqlash;

gerpetobiont qo'ng'izlar faunasini ekologo-faunistik tahlil qilish;

gerpetobiont qo'ng'izlarning biotoplar bo'yicha tarqalishini qiyosiy baholash;

gerpetobiont qo'ng'izlarning mavsumiy dinamikasini aniqlash;

gerpetobiont qo'ng'izlarning kamayib borayotgan va noyob turlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonda tarqalgan hasharotlar – Insecta sinfi, qattiqqanotlilar – Coleoptera turkumi, Carabidae, Tenebrionidae, Elateridae va Scarabaeidae oilasiga mansub hasharotlar olingan.

Tadqiqotning predmeti Gerpetobiont qo'ng'izlarning taksonomiyasi, faunasi, bioxilma-xilligi va ekologik xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotlarida umum qabul qilingan klassik entomologik, koleopterologik uslublar, namunalar yig'ish marshrut usulida tuproq tutqich-bankalari, yorug'lik tutqichlari yordamida, fauna xilma-xilligini baholash statistik usullar asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Quyi Zarafshon biosenozlarida vizildoq qo'ng'izlarning 9 ta kenja oila, 19 ta triba, 28 ta avlodga mansub 43 ta turi, jumladan, O'zbekiston faunasi uchun yangi 2 turi aniqlangan; qoratanli qo'ng'izlarning 3 ta kenja oila, 16 ta triba, 30 ta avlodga mansub 46 ta turi, jumladan, O'zbekiston faunasi uchun yangi 5 turi; qarsildoq qo'ng'izlarning 4 ta kenja oila, 7 ta avlodga mansub 12 ta turi; plastinkamo'ylovli qo'ng'izlarning 3 ta kenja oila, 17 ta avlodga mansub 31 turi aniqlangan.

gerpetobiont qo'ng'izlarning agrosenozlar va cho'l biosenozlarida tarqalish xususiyatlari, ekologik ixtisoslashuvi, biotopik taqsimlanish xususiyatlari ochib berilgan;

Quyi Zarafshon biosenozlarida gerpetobiont qo'ng'izlarning mavsumiy dinamikasi va uning hudud gidrotermik xususiyatlari bilan bog'liqligi aniqlangan;

Gerpetobiont qo'ng'izlarning noyob va kam sonli turlari aniqlangan va ularning Respublika "Qizil kitob"iga kiritish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Quyi Zarafshon gerpetobiont qo'ng'izlarining xilma-xilligini aks ettiruvchi, 132 tur va 2000 nusxadan iborat kolleksiya yaratilgan. Ushbu kolleksiyadagi gerpetobiont qo'ng'izlarning tur tarkibi haqidagi ma'lumotlar asosida Respublikamiz entomofaunasining turlar ro'yxati boyitilgan.

Gerpetobiont qo'ng'izlarning noyob va kam sonli turlari aniqlangan hamda ularning 6 turini O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob"iga kiritish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan zoologiya va entomologiya sohalaridagi usul va yondoshuvlar asosida olingan natijalarning nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, faunistik ma'lumotlarning zamonaviy dasturlar asosida statistik tahlildan o'tkazilganligi, olingan natijalarning nufuzli nashrlarda chop etilganligi hamda turlarning to'g'ri aniqlanganligi yetakchi mahalliy va xorijiy mutaxassislar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Quyi Zarafshon gerpetobiont qo'ng'izlari kompleks tahlil qilinib, turlar tarkibi aniqlanganligi, taksonomik va ekologik strukturasi, landshaft-zonal tarqalishi, mavsumiy dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilk bor qayd etilgan turlarning O'zbekiston faunasi ro'yxatini boyitishi hamda 1 ta oilaga mansub 6 ta turning Respublika "Qizil kitobi" ga kiritish zaruriyati mavjudligi ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Quyi Zarafshon biosenozlari gerpetobiont qo'ng'izlarining taksonomik tarkibi va ekologiyasi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

Quyi Zarafshon biosenozlaridan yig'ilgan gerpetobiont qo'ng'izlar kolleksiyasi Buxoro viloyat O'lkashunoslik muzeyi fondiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi madaniyat va san'atni rivojlantirish Madaniy me'ros agentligining 2023-yil 22-fevraldagi № 02-10/460-son ma'lumotnomasi). Natijalar gerpetobiont qo'ng'izlarning faunistik tarkibi orqali hududning ekologik holatini baholash va ular asosida hayvonot dunyosini barqarorligini saqlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, zararkunanda hasharot turlariga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Gerpetobiont qo'ng'izlarning bioxilma-xilligi, taksonomik tarkibi, tarqalishi va ekologik xususiyatlari bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Buxoro viloyati Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Tabiat Resurslari vazirligining 2023 yil 12 apreldagi № 03-01/21-242-son ma'lumotnomasi). Natijada, Carabidae oilasidan 2 tur (*Syntomus obscuroguttatus* (Duftschmid, 1812) va *Scarites subcylindricus* Chaudoir, 1843), Tenebrionidae oilasidan 5 tur (*Cyphogenia lucifuga*, Adams, 1817, *Trigonoscelis apicalis* Reitter, 1907, *Colpotus sulcatus* (Menetries, 1838), *Tribolium destructor* Uyttenboogart, 1933, *Pentaphyllus chrysomeloides* (Rossi, 1792)), jami 7 tur O'zbekiston Respublikasi faunasi uchun ilk marotaba qayd qilinishi, gerpetobiont qo'ng'izlarning 6 ta turini (*Europhanta tomentosa*, *Lasiostola hirta*, *Podhomala nitida*, *Podhomala heydeni*, *Catomus niger* va *Sternodes caspicus*) Respublika "Qizil kitob"iga kiritish tavsiya etilishi O'zbekiston Respublikasi faunasi ro'yxatini kengaytirish va muhofazaga muhtoj turlarni aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, olti bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Gerpetobiont qo'ng'izlar haqida umumiy ma'lumotlar”** deb nomlangan birinchi bobida gerpetobiont qo'ng'izlarning asosiy guruhlari, hayotiy shakllari va yashash muhitiga moslashishi hamda ushbu guruh qo'ng'izlarni o'rganilish tarixiga oid tadqiqotlarning tahlili aks etgan bo'lib, u ikki bo'limdan iborat. Birinchi bo'lim gerpetobiont qo'ng'izlarning asosiy sistematik guruhlari va xo'jalikdagi ahamiyati tahliliga bag'ishlangan. Gerpetobiontlar alohida guruhlarining xo'jalikdagi ahamiyati bo'yicha xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar keng tahlil qilingan.


Bobning ikkinchi bo'limida gerpetobiont qo'ng'izlarning O'zbekistonda o'rganilish tarixi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Gerpetobiontlarning alohida guruhlari, zararkunanda turlari, ularning bioekologik xususiyatlari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar keng tahlil qilingan. Mavjud ilmiy manbalar tahliliga ko'ra bunday ishlar Respublikamizning ayrim hududlarini qamrab olgan. Zarafshon vodiysi quyi oqimi biosenozlarida olib borilgan ishlar hajmi esa juda kam va mavjudlari ham o'tgan asrning 50-60-yillariga to'g'ri keladi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot hududining tabiiy-geografik tavsifi, tadqiqot materiallari va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot hududining tabiiy-geografik tavsifi, tadqiqot materiallari va uslublarning tavsifi keltirib o'tilgan.

Bobning birinchi bo'limida tadqiqot hududlarining geografiyasi, geologiyasi, relyefi, iqlimi, tuproqlari va o'simlik qoplamisi haqida ma'lumotlar keltirilgan (1-rasm).

Bobning ikkinchi bo'limi tadqiqot materiallari va uslublari haqida bag'ishlangan. Tadqiqot mobaynida ilmiy ekspeditsiyalar (2019-2023 yy.) O'zbekistonning 3 ta viloyatlaridagi (Buxoro, Qashqadaryo va Navoiy) biosenozlarda amalga oshirilgan va material yig'ilgan. Hasharotlarni yig'ish marshrut va stasionar tadqiqotlar usulida

tuproq banka-tutqichlari, yorug‘lik tutqichlari, tuproq chuqurlari, tungi va kunduzgi vizual yig‘ish orqali amalga oshirilgan. Jami tadqiqotlar davomida 9000 dan ortiq namunadagi gerpetobiont qo‘ng‘izlar yig‘ilib, ishlov berilgan va kolleksiya tayyorlangan.




1-rasm. Tadqiqotlar olib borilgan hudud xaritasi

Gerpetobiontlar tur tarkibini aniqlashda G.S. Medvedev, M.G. Nepesova (1985), G.M.Abduraxmanov, M.V.Nabojenko (2011), E.I.Xotko (1978), G.Ya. Bey-Biyenko (1965) aniqlagichlari hamda alohida avlodlarga bag‘ishlangan kalitlardan foydalanildi. Turlar identifikatsiyasi I.Kabak (Sankt-Peterburg), A.Prosvirov (MGU, Moskva) va R.Dudko (Novosibirsk) tomonidan tasdiqlangan.

Dissertatsiyaning «**Quyi Zarafshon vizildoq qo‘ng‘izlari (Carabidae) ning taksonomik tarkibi va ekologo-faunistik tavsifi**» deb nomlangan uchinchi bobining birinchi bo‘limida vizildoq qo‘ng‘izlarning taksonomik ro‘yxati keltirilgan. Har bir tur uchun uning taksonomik o‘rni, yig‘ilgan material manzili va geografik tarqalishi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan. Tadqiqot hududi karabidofaunasi 9 ta kenja oila, 19 ta triba, 28 ta avlodga mansub 43 ta turdan iborat. Respublika faunasi uchun 2 ta tur ilk marotaba qayd etilgan.

Aniqlangan vizildoq qo‘ng‘izlar 9 ta kenja oilaga mansub bo‘lib, turlarining xilma-xilligi jihatidan Harpalinae Bonelli, 1810 kenja oilasi yaqqol ustunlikka ega (2-rasm, A). Ushbu kenja oila vakillari 21 turdan iborat bo‘lib, barcha turlarning 49% ini tashkil etadi. Individlarning serobliligi jihatidan taqqoslanganda Harpalinae kenja oilasining ustunligi yanada yaqqol namoyon bo‘ladi (2-rasm, B). Barcha yig‘ilgan qo‘ng‘izlarning 82% ini Harpalinae kenja oilasi individlari tashkil etdi.



2-rasm. Karabidofaunada turli kenja oilalarning turlar xilma-xilligi (A) va individlar seroblighi bo'yicha hissasi (B)

Karabidofanunaning turlar tarkibini tribalar kesimida tahlil qilinganda, aniqlangan turlarning 23,26% (10 tur) Harpalini tribasi vakillari tashkil etishdi. Keyingi o'rinlarda Scaritini, Bembidiini va Lebiini joylashadi (har biri 9,3% (4 tur) dan).

Ushbu bobning ikkinchi bo'limida Quyi Zarafshon hududi karabidofaunasining ekologo-faunistik tavsifi keltirilgan. Karabidofauna ekologik xilma-xilligini baholash maqsadida jamoaning turlarga boyligi, taqsimlanishning tekisligi va dominantlik me'yorlarini ko'rsatuvchi ayrim indekslar hisoblab topilgan. Aniqlangan turlar orasida *Calathus ambiguus* (dominantlik darajasi 20,21%), *Machozetus lehmanni* (17,44%), *Harpalus distinguendus* (16,23%), *Scarites bucida* (7,6%) va *Machozetus concinnus* (5,35%) turlari dominant turlar, *Scarites terricola* (4,32%) *Megacephala euphratica* (3,97%), *Amara aenea* (2,94), *Amara ovata* (2,25) va *Harpalus rubripes* (2,07) subdominant turlar jumlasiga kiradi. Hududning bir-biridan gidrotermik sharoiti bilan keskin farq qiluvchi cho'l va madaniy biosenozlar karabidofaunasi qiyosiy baholangan (1-jadval).


Dissertatsiyaning «**Quyi Zarafshon qoratanli qo'ng'izlari (Tenebrionidae)ning taksonomik tarkibi va ekologo-faunistik tavsifi**» deb nomlangan to'rtinchi bobi qoratanli qo'ng'izlar faunasi tahliliga bag'ishlanadi. Bobning birinchi bo'limi qoratanli qo'ng'izlarning taksonomik ro'yxatidan iborat va bu ro'yxat 3 ta kenja oila, 16 ta triba, 30 ta avlodga mansub 46 ta turni birlashtiradi.

Agrosenoz va tabiiy cho'l biosenozlari karabidofaunasining qiyosiy ekologik tahlili

Ekologik xilma-xillik indekslari	Agrosenozlar	Tabiiy choʻl biosenozlari
Turlar soni	23	22
Ikkala biosenoz uchun umumiy boʻlgan turlar soni	4	
Turlarga boyligi indekslari:		
Margalef indeksi	3,87	3,75
Shennon indeks	2,09	2,06
Menxinik indeksi	1,43	1,34
Taqsimlanishning tekisligi indeksi:		
Shennon boʻyicha taqsimlanish tekisligi	0,67	0,86
Dominantlik meʼyorlari:		
Simpson indeksi	0,216	0,196
Berger-Parker indeksi	0,4	0,37
Oʻxshashlik koeffisiyentlari:		
Jakkar koeffisiyenti	0,098	
Chekanovskiy-Serensen koeffisiyenti	0,078	

Aniqlangan turlardan 5 tasi (*Cyphogenia lucifuga*, Adams, 1817, *Trigonoscelis apicalis* Reitter, 1907, *Colpotus sulcatus* (Menetries, 1838), *Tribolium destructor* Uyttenboogart, 1933, *Pentaphyllus chrysomeloides* (Rossi, 1792)) O'zbekiston Respublikasi faunasi uchun ilk marotaba qayd qilingan.

Turli oilalar va tribalarning faunadagi hissasi baholangan. Aniqlangan turlarning asosiy qismi (28 tur, 61%) Pimeliinae kenja oilasi vakillaridir (3-rasm).



3-rasm. Quyi Zarafshon qora tanli qo'ng'izlari faunasida turli kenja oilalarning turlar xilma-xilligi (A) va individlar seroblighi (B) bo'yicha hissasi

Qora tanli qo'ng'izlar faunasida turli tribalarning turlar xilma-xilligi bo'yicha hissasi ularning miqdoriy ko'rsatkichlariga mos kelmaydi. Masalan, turlar xilma-xilligidagi hissasi 13% ni tashkil etgan Opatrini tribasi individlar seroblighi jihatidan barcha qo'ng'izlarning 21,3% ini tashkil etadi. Shuningdek, miqdoriy jihatdan

Pimeliini tribasining hissasi 15% ni tashkil etadi, vaholanki, bu tribaning turlar xilma-xilligidagi hissasi 28% ni tashkil etgan. Hududda yagona turga ega bo'lgan va turlar xilma-xilligidagi hissasi 2% ni tashkil etgan Adesmiini tribasining individlar seroblighi jihatidan tenebrio faunadagi hissasi 17,3% ni tashkil etadi. Shunday holat Stenosini tribasi hissasi o'zgarishida ham kuzatiladi (2% dan 9% ga ko'tariladi).

Bobning ikkinchi bo'limida qoratanli qo'ng'izlar faunasining ekologik xususiyatlari tahlili keltirilgan. Hududda *Adesmia planidorsis* (dominantlik darajasi 17,33%), *Stenosis sulcicollis* (8,97%), *Scleropatrum brevisculus* (7,60%), *Cyphogenia lucifuga* (6,23%), *Trigonoscelis apicalis* (6,08%), *Scleropatrum seidlitzii* (5,78%), *Zophosis scabriuscula* (5,78%) va *Ocnerna pilicollis* (5,17%) turlari dominant turlar, *Tentyria gigas* (4,26%), *Scleropatrum hirtulum* (3,80%), *Cyphogenia limbata* (3,65%) va *Blaps scutellata* (3,04%) subdominant turlar jumlasiga kiradi. Muzey kolleksiyalarida mavjud bo'lgan 6 ta tur (*Earophanta tomentosa*, *Lasiostola hirta*, *Podhomala nitida*, *Podhomala heydeni*, *Catomus niger* va *Sternodes caspicus*) dala sharoitida qayd etilmadi. Ushbu turlarni Respublika "Qizil kitob"ga kiritish va ular populyatsiyasi holatini o'rganish bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib borish zarur.

Agrosenozlar va aholi punktlaridan iborat madaniy landshaftlar hamda cho'l landshafti qoratanli qo'ng'izlari faunasida keskin farqlar mavjudligi aniqlandi (2-jadval).


2-jadval.

Agrosenoz va tabiiy cho'l biosenozlari qoratanli qo'ng'izlari faunasining qiyosiy ekologik tahlili

Ekologik xilma-xillik indekslari	Agrosenozlar va aholi punktlari	Tabiiy choʻl biosenozlari
Turlar soni	19	33
Umumiy boʻlgan turlar soni	6	
Turlarga boyligi indekslari:		
Margalef indeksi	3,17	5,40
Shennon indeks	2,29	2,51
Menxinik indeksi	1,12	1,70
Taqsimlanishning tekisligi indeksi:		
Shennon boʻyicha taqsimlanishning tekisligi	0,78	0,72
Dominantlik meʼyorlari:		
Simpson indeksi	0,12	0,13
Berger-Parker indeksi	0,2	0,30
Oʻxshashlik koeffisiyentlari:		
Jakkar koeffisiyenti	0,057	
Chekanovskiy-Serensen koeffisiyenti	0, 13	

Bu ikki tipdagi biosenozlar faunasining o'xshashlik koeffitsiyentlari juda past ko'rsatkichga ega (Jakkar koeffitsiyenti-0,057, Chekanovskiy-Serensen koeffitsiyenti-0,13). Demak, tadqiqot hududining qoratanli qo'ng'izlari faunasi ham bir-biridan keskin farq qiluvchi ikki xil turlar kompleksidan iborat.

Dissertatsiyaning “Quyi Zarafshon qarsildoq (Elateridae) va plastinkamo‘ylovli (Scarabaeidae) qo‘ng‘izlarining taksonomik tarkibi” deb nomlangan beshinchi bobining birinchi bo‘limida Elateridae oilasi vakillarining taksonomik ro‘yxati keltirilgan. Tadqiqotlar davomi hudud biosenozlarida qarsildoq qo‘ng‘izlarning 4 ta kenja oila, 7 ta avlodga mansub 11 ta turi tarqalganligi aniqlangan. Hududda Elaterinae kenja oilasining 4 ta turi, Cardiophorinae va Agrypninae kenja oilalarining 3 tadan turi, Melanotinae kenja oilasining esa 1 ta turi tarqalgan (4-rasm). Turlar xilma-xilligida Elaterinae kenja oilasi yetakchilik qilsada, individlar serobligi jihatidan Agrypninae kenja oilasi oldingi o‘rinda turadi.



4-rasm. Quyi Zarafshon qarsildoq qo‘ng‘izlari faunasida turli kenja oilalarning turlar xilma-xilligi (A) va individlar serobligi (B) bo‘yicha hissasi


Tadqiqot hududida qarsildoq qo‘ng‘izlarning dominant turlariga *Drasterius figuratus* (dominantlik darajasi 34,78%), *Melanotus acuminatus* (22,28%), *Agriotes meticulosus* (17,39%) va *Cardiophorus hauseri* (11,96%). Bu to‘rtta tur birgalikda yig‘ilgan barcha qarsildoq qo‘ng‘izlarning 86,4% ini tashkil etadi. Subdominant turlar *Dicronychus heinzi*, *Drasterius atricapillus*, *Dicronychus nigropunctatus* va *Agriotes oxianus* turlaridan iborat.

Beshinchi bobning ikkinchi bo‘limida plastinkamo‘ylovli qo‘ng‘izlar faunasining tahlili keltirilgan. Tadqiqotlar davomida quyi Zarafshon biosenozlaridan plastinkamo‘ylovli qo‘ng‘izlarning 8 ta kenja oila, 13 ta triba, 19 ta avlodga mansub 31 turi (kenja turlar bilan 32 ta) aniqlangan. Turlarning taksonomik ro‘yxati tuzilgan. 2 ta tur (*Lethrus rosmarus*, *Pentodon brachypterus*) O‘rta Osiyoning endemik turi, 2 ta tur (*Amphimallon sogdianum* va *Melolontha afflicta afflicta*) O‘zbekistonning endemik turlari qatoriga kiritilgan.

Turlarining xilma-xilligi jihatidan Scarabaeinae kenja oilasi yaqqol ustunlik qiladi (9 tur, 28%) (5-rasm). Melolonthinae kenja oilasi vakillari barcha turlarning 22%ini (7 tur) tashkil etadi. Rutelinae va Valginae kenja oilalari plastinkamo‘ylovli qo‘ng‘izlar faunasida faqat bittadan turga ega. Lekin individlarining serobligi jihatidan kenja oilalarning hissasi turlar xilma-xilligi bo‘yicha hissasidan tubdan

farq qiladi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha yaqqol ustunlik Cetoniinae kenja oilasiga to'g'ri keladi va ular barcha tutilgan qo'ng'izlarning 35% ini tashkil etdi.

Plastinkamo'ylovli qo'ng'izlar faunasining turlar tarkibini tribalar kesimida tahlil qilinganda ayrim tribalarning yaqqol ustunligi kuzatilmadi. Eng yuqori hissaga ega Melolonthini tribasi vakillari barcha turlarning 15,63% ini (5 tur) tashkil etadi. Shuningdek, dominant tribalar qatoridan Aphodiini, Cetoniini va Scarabaeini tribalari ham joy oladi (har biri 12,5% dan, 4 tadan tur). Anomalini, Valgini va Onitini tribalari faunada bittadan turga ega va ularning hissasi 3,13% ni (har biri) tashkil etadi.




5-rasm. Plastinkamo'ylovli qo'ng'izlar faunasida turli kenja oilalarning turlar xilma-xilligi (A) va individlar seroblighi (B) bo'yicha hissasi

Umuman, plastinkamo'ylovli qo'ng'izlar faunasida *Oxythyrea cinctella* (dominantlik darajasi 22,44%), *Acrossus rufipes* (9,78%), *Bodilus caspius* (5,56%) va *Tropinota hirta* (5,56%) turlari dominant turlar, *Lethrus rosmarus* (4,67%), *Cetonia aurata* (4,44%), *Acrossus luridus* (4,22%), *Phyllopertha horticola* (3,78%) va *Melolontha hippocastani* (3,56%) subdominant turlar jumlasiga kiradi. *Scarabaeus sacer*, *Onitis humerosus*, *Teuchestes fossor* va *Pentodon brachypterus* kam sonli turlar bo'lib, ularning dominantlik darajasi 1% dan kam.

Dissertatsiyaning «Gerpetobiont qo'ng'izlarning mavsumiy faolligi» deb nomlangan oltinchi bobida gepetobiontlarning mavsumiy dinamikasini o'rganish bo'yicha kuzatish va hisoblash natijalari keltirilgan.

Gerpetobionlar miqdorining mavsumiy tebranishlarini aniqlash yorug'lik tutqichlari asosida amalga oshirildi. Chunki gerpetobiontlarning barcha guruhlari ham ijobiy fototaksisga ega va yorug'likka uchib kelish xususiyati yuqori. Albatta, gerpetobiontlar orasida vizildoq qo'ng'izlar va qoratanli qo'ng'izlar ko'plab uchish qobiliyatiga ega bo'lmagan turlarni o'z ichiga oladi. Ammo, tadqiqotlar natijasida uchish qobiliyati bo'lmagan yirik o'lchamli qo'ng'izlarning ham yorug'likka kelishi


kuzatildi. Ayniqsa, yirtqich hayot tarziga ega bo'lgan vizildoq qo'ng'izlarning yorug'lik tutqichlariga kelishi ancha yuqori bo'lib, bu holat ularning tutqichga kelgan turli-tuman hasharotlar bilan oziqlanishi bilan tushintiriladi. Lekin, ayrim yirik o'lchamga ega bo'lgan, oziqlanish usuliga ko'ra fitofag va saprofag bo'lgan qora tanli qo'ng'izlarning ham yorug'lik tutqichlarga kelishi ularda ham ijobiy fototaksis ifodalanganligidan dalolat beradi. Ta'kidlash joizki, qoratanli qo'ng'izlar miqdorini tahlil qilishda yorug'lik tutqichlaridan foydalanish amaliyotiga deyarli e'tibor berilmagan bo'lsada, bizning tadqiqotlarda yorug'lik tutqichiga tushgan hasharotlar orasida qora tanli qo'ng'izlar son jihatidan yetakchi oilalar qatorida turadi va faqat plastinka mo'ylovlilar oilasi vakillari ulardan ustunlik qiladi (6-rasm).



6-rasm. Mavsum davomida gerpetobiont qo'ng'izlar asosiy guruhlarining yorug'lik tutqichlariga tushgan individlari soni (Jondor tumani agrotsenozlari, 2022)

Agrosenozlarda gerpetobiontlar sonining sezilarli darajada ko'payishi iyun oyining dastlabki kunlarida kuzatiladi. 2022 yil 1 iyunda qo'ng'izlar sonining dastlabki yuqori miqdori kuzatildi va bu kuni tutqichga tushgan hasharotlar soni 500 donani tashkil etdi. Lekin keyinchalik qo'ng'izlar sonining kamayishi sodir bo'ladi. Gerpetobiont qo'ng'izlar sonining maksimal miqdori 3 iyul kunda qayd etildi. Bu davrda bir kechada yorug'lik tutqichlariga tushgan qo'ng'izlar soni 1549 tani tashkil etdi. Bu davrda havo nisbiy namligi va atmosfera bosimining eng past ko'rsatkichlariga to'g'ri keldi. Ammo keyingi kunda shamol tezligining keskin ko'tarilishi yorug'lik tutqichlariga tushgan hasharotlar sonining keskin kamayishiga olib keldi.

Tutqichga tushgan qo'ng'izlar miqdorining atmosfera fizik ko'rsatkichlariga bog'liqligi haqida to'laroq tasavvur hosil qilish maqsadida olingan natijalar regression va korrelyatsion tahlildan o'tkazildi (7-rasm). Tutqichga tushgan gerpetobiontlar soni bilan havo harorati orasida korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,34 ni tashkil etadi. Shuningdek, statistik tahlillar havoning nisbiy namligi va atmosfera bosimi ko'rsatkichlari bilan qo'ng'izlar soni o'rtasida kuchsiz teskari korrelyatsiya borligini ko'rsatdi.




7-rasm. Mavsum davomida havo harorati (A) va atmosfera nisbiy namligi (B), shamol tezligi (C) va atmosfera bosimi (D) bilan gerpetobiont qo'ng'izlar soni orasidagi bog'liqlikning regression tahlili (taqqoslash uchun pastki o'ng burchakda korrelyatsiya koeffitsiyenti ham ko'rsatilgan)

Gerpetobiont qo'ng'izlar turli taksonlari vakillarining mavsum davomidagi faolligi va populyasiyalarining zichligi bir-biridan sezilarli farq qiladi (8-rasm). Yorug'lik tutqichlariga tushgan gerpetobiontlar orasida plastinkamo'ylovlar (Scarabaeidae) oilasi vakillari ustunlik qiladi. Mavsum davomida tutilgan ushbu oilaga mansub qo'ng'izlar soni 3947 tani tashkil etdi. Scarabaeidae oilasi vakillarining eng yirik turlari ham yorug'likka uchib kelish xususiyatiga ega. Umuman, plastinkamo'ylovli qo'ng'izlar soni aprel oyidayoq ancha yuqori qiymatlarga erishadi. Lekin may oyining boshlarida ularning soni bir oz kamayadi va mayning oxiridan yana o'sa boshlaydi. Iyunning ikkinchi yarmida ushbu qo'ng'izlar zichligi ancha yuqori qiymatga yetadi va bu davrda bitta yorug'lik tutqichiga tushgan qo'ng'izlar soni 200 tagacha yetadi. Umuman plastinkamo'ylovli

qo'ng'izlar sonining maksimal qiymati iyunning 3-o'n kunligiga to'g'ri keladi va bu davrda 1 ta tutqichga tushgan qo'ng'izlar soni 362 tagacha boradi.

Tutqichga tushgan individlar soni jihatidan keyingi o'rinda qoratanli qo'ng'izlar (Tenebrionidae) oilasi turadi va mavsum davomida bu oila vakillari 1831 nusxadagi individlardan iborat bo'ldi. Ta'kidlash joizki, ushbu oila vakillari seroblighi mavsumning asosiy qismida boshqa taksonlarga nisbatan ancha past bo'ladi. Lekin 3 iyul kuni qoratanli qo'ng'izlar soning keskin oshib ketishi kuzatilgan va shu kuni tutqichga tushgan qo'ng'izlar soni 1085 tani tashkil etgan. Umuman, yorug'lik tutqichlariga kelgan qoratanli qo'ng'izlar orasida Scleropatrum va Gonocephalum avlodlarining vakillari ko'p sonli bo'ladi.

Tutqichga tushgan barcha qo'ng'izlarning 17,4% ini (1567 ta) kaltaustqanotli qo'ng'izlar (Staphylinidae) oilasiga mansub hasharotlar tashkil etdi. Stafilinlar kichik o'lchamli qo'ng'izlar bo'lib, uchish qobiliyati yaxshi rivojlangan. Stafilin qo'ng'izlar soni mavsum davomida uch marta maksimum qiymatga erishadi. Birinchi maksimum qiymat iyunning boshiga to'g'ri keladi va bu davrda 1 ta tutqichga tushgan hasharotlar soni 145 tani tashkil etadi. Lekin ular sonining eng yuqori qiymati 3 iyul kuni qayd etildi (1 ta tutqichga tushgan hasharotlar soni 200 ta). Ular sonidagi uchinchi maksimum qiymat iyulning o'rtalariga to'g'ri keladi (14 iyul).



8-rasm. Gerpetobiont qo'ng'izlar asosiy taksonlari vakillarining mavsumiy dinamikasi (Jondor tumani, 2022)

Carabidae oilasi vakillari, ya'ni vizildoq qo'ng'izlar barcha qo'ng'izlarning 12,9% ini tashkil etdi (1164 nusxa). Vizildoq qo'ng'izlar agrosenozlardagi eng ko'p sonli qo'ng'izlar jumlasiga kiradi. Lekin ularning ko'pgina vakillari uchish qobiliyatini yo'qotganligi uchun yorug'lik tutqichlariga tushmaydi. Asosan mayda va o'rtacha o'lchamga ega bo'lgan vizildoq qo'ng'izlar tutqichlarga uchib keladi. Lekin shunday bo'lsada, tutqichga tushgan qo'ng'izlar soni asosida umuman karabidofaunaning mavsumiy dinamikasi haqida xulosalar chiqarish mumkin.

Vizildoq qo'ng'izlar sonining eng yuqori qiymatlari iyun va iyul oylarining boshiga to'g'ri keladi.

Gerpetobiontlar orasida eng kam sonli guruh qarsildoq qo'ng'izlardan (Elateridae) iborat bo'ldi va ular barcha tutilgan qo'ng'izlarning 5,7% ini tashkil etdi. Lekin bu holat ushbu guruhga mansub turlar populyasiyasining zichligidan dalolat bermaydi. Qarsildoq qo'ng'izlar gerpetobiontlar orasida eng kam turga ega guruh hisoblanadi va tadqiqot hududida ularning faqatgina 11 ta turi tarqalgan. Bu turlar populyasiyasining zichligi yetarlicha yuqori bo'lsada, ularning soni gerpetobiontlarning umumiy soniga nisbatan ancha kam miqdorni tashkil etadi. Qarsildoq qo'ng'izlar yaxshi uchish qobiliyatiga ega va ular yorug'lik tutqichlarga ko'p miqdorda uchib keladi. Ushbu qo'ng'izlar sonining mavsumiy tebranishlari ancha barqaror bo'lib, mavsum davomida uncha katta o'zgarishlarga uchramaydi. Ularning eng yuqori miqdori iyunning oxiriga to'g'ri keladi.

XULOSALAR

“Quyi Zarafshon gerpetobiont qo'ng'izlarining taksonomik xilma-xilligi va ekologiyasi” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Quyi Zarafshon hududi vizildoq qo'ng'izlari faunasi 9 ta kenja oila, 19 ta triba, 28 ta avlodga mansub 43 ta turdan iborat. Xilma-xilligi jihatidan Harpalinae kenja oilasi yaqqol ustunlikka ega va barcha turlarning 49% ini (21 tur) tashkil etadi. Barcha vizildoq qo'ng'izlarning 19%i Trechinae kenja oilasi vakillaridir (8 tur). Individlar seroblighi jihatidan Harpalinae kenja oilasining ustunligi yanada yaqqol namoyon bo'ladi (82%). Tribalar orasida Harpalini tribasi (23,26%), avlodlar orasida *Harpalus* avlodi (11,6%) yetakchilik qiladi.

2. Hudud karabidofaunasi bir-biridan keskin farq qiladigan kserofil (cho'l biotoplarini ishg'ol qiladigan) va gigromezofil turlar (agrosenozlarni ishg'ol qilgan) kompleksidan tashkil topgan. Ushbu komplekslar turlar xilma-xilligi bo'yicha yaqin bo'lsada, sifat jihatidan keskin farq qiladi.

3. Quyi Zarafshon qora tanli qo'ng'izlari faunasi 3 ta kenja oila, 16 ta triba, 30 ta avlodga mansub 46 ta turdan iborat. Aniqlangan turlarning asosiy qismi (28 tur, 61%) Pimeliinae kenja oilasi vakillaridir. Tenebrioninae kenja oilasining hisyasi 37% ni (17 tur), Diaperinae kenja oilasi esa 2% ini tashkil etadi. Tribalar orasida Pimeliini tribasi (11 tur, 28%), avlodlar orasida *Blaps* va *Trigonoscelis* avlodlari (4 tadan tur, 8,7% dan) yetakchilik qiladi.

4. Cho'l biosenozlari qoratanli qo'ng'izlari kompleksi 33 turdan, agrosenozlar va aholi punktlari faunasi esa 19 turdan iborat. Cho'l biosenozlarida *Adesmia planidorsis* (30,32%), *Cyphogenia lucifuga* (10,9%), *Trigonoscelis apicalis* (10,64%), *Ocnerna pilicollis* (9,04%), *Cyphogenia limbata* (6,38%) dominant turlar bo'lib, agrosenozlarda uchramaydi. Agrosenozlarda *Stenosis sulcicollis* (20,42%), *Scleropatrum brevisculus* (17,3%), *Zophosis scabriuscula* (12,46%), *Scleropatrum seidlitzii* (13,15%), *Tentyria gigas* (9,69%) va *Scleropatrum hirtulum* (8,65%) dominant turlardir.

5. Quyi Zarafshon qarsildoq qo'ng'izlari faunasi 4 ta kenja oila, 7 ta avlodga mansub 11 ta turdan iborat. Turlar xilma-xilligida Elaterinae kenja oilasi yetakchilik qilsada (34%), individlar seroblighi jihatidan Agrypninae kenja oilasi (38%) oldingi o'rinda turadi. Qarsildoq qo'ng'izlarning dominant turlari *Drasterius figuratus* (dominantlik darajasi 34,78%), *Melanotus acuminatus* (22,28%), *Agriotes meticulosus* (17,39%) va *Cardiophorus hauseri* (11,96%), subdominant turlari esa *Dicronychus heinzi*, *Drasterius atricapillus*, *Dicronychus nigropunctatus* va *Agriotes oxianus* dan iborat.

6. Quyi Zarafshon plastinkamo'ylovli qo'ng'izlari faunasi 8 ta kenja oila, 13 ta triba, 19 ta avlodga mansub 31 turdan (kenja turlar bilan 32 ta) iborat. Turlarining xilma-xillighi jihatidan Scarabaeinae kenja oilasi (9 tur, 28%), individlarining seroblighi jihatidan esa Cetoniinae kenja oilasi (35%) ustunlik qiladi. Dominant turlar *Oxythyrea cinctella* (dominantlik darajasi 22,44%), *Acrossus rufipes* (9,78%), *Bodilus caspius* (5,56%) va *Tropinota hirta* (5,56%) turlaridan, subdominant turlar esa *Lethrus rosmarus* (4,67%), *Cetonia aurata* (4,44%), *Acrossus luridus* (4,22%), *Phyllopertha horticola* (3,78%) va *Melolontha hippocastani* (3,56%) dan iborat.

7. Carabidae oilasidan 2 tur (*Syntomus obscuroguttatus* (Duftschmid, 1812) va *Scarites subcylindricus* Chaudoir, 1843), Tenebrionidae oilasidan 5 tur (*Cyphogenia lucifuga*, Adams, 1817, *Trigonoscelis apicalis* Reitter, 1907, *Colpotus sulcatus* (Menetries, 1838), *Tribolium destructor* Uyttenboogart, 1933, *Pentaphyllus chrysomeloides* (Rossi, 1792)), jami 7 tur O'zbekiston Respublikasi faunasi uchun ilk marotaba qayd qilindi.

8. Agrosenozlarda gerpetobiontlar sonining sezilarli darajada ko'payishi iyun oyining dastlabki kunlarida kuzatiladi. Lekin ularning maksimal miqdori iyul oyining boshiga to'g'ri keladi. Gerpetobiont qo'ng'izlar soni bilan havo harorati orasida kuchsiz ijobiy korrelyasion bog'liqlik ($r=0,34$), havoning nisbiy namligi va atmosfera bosimi ko'rsatkichlari bilan qo'ng'izlar soni o'rtasida kuchsiz teskari korrelyasion bog'liklik ($r=-0,34$ va $r=-0,24$) mavjud.

9. Gerpetobiont qo'ng'izlarning turli sistematik guruhlarida individlarning mavsum davomidagi faollighi bir-biridan farq qiladi. Carabidae, Elateridae, Staphylinidae va Tenebrionidae oilasi vakillarining mavsumiy tebranishlari deyarli parallel sodir bo'lsa, Scarabaeidae oilasi vakillari soning tebranishi ularga mos tushmaydi va maksimal qiymat iyulning oxirida kuzatiladi.

10. Gerpetobiont qo'ng'izlarning 6 ta turini (*Earophanta tomentosa*, *Lasiostola hirta*, *Podhomala nitida*, *Podhomala heydeni*, *Catomus niger* va *Sternodes caspicus*) Respublika "Qizil kitob"ga kiritish tavsiya etiladi va ular populyatsiyasi holatini o'rganish bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib borish zarur.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.B.02.08 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ
ШАРОФА РАШИДОВА**

АЛИМОВА ЛУИЗА ХАЛИЛОВНА

**ТАКСОНОМИЧЕСКОЕ РАЗНООБРАЗИЕ И ЭКОЛОГИЯ
ГЕРПЕТОБИОНТНЫХ ЖУКОВ НИЖНЕГО ЗЕРАВШАНА**

03.00.06 – Зоология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Самарканд – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистана за номером B2021.4.PhD/B658.

Диссертационная работа выполнена в Самаркандском Государственном университете имени Шарофа Рашидова.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме) размещён на веб-странице Научного совета (www.samdu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Халимов Фазлитдин Закирович
кандидат биологических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Иззатуллаев Зувайд
доктор биологических наук, профессор
Мирзаева Гулнара Саидарифовна
доктор биологических наук, профессор

Ведущая организация:

Гулистанский государственный университет

Защита диссертации состоится «10» октября 2023 года в "14⁰⁰" часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.B.02.08 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова. (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 15. Актовый зал института Биохимии Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова. Тел.: (+99866) 239-11-40; факс (+99866) 239-11-40; E-mail: devonxona@samdu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (зарегистрировано за № 110 Адрес: 140104, г. Самарканд Университетский бульвар, дом 15, Центр информационных ресурсов, Тел.: (+99866) 239-11-51).

Автореферат диссертации разослан «26» сентября 2023 года.
(Реестр протокола рассылки № 3 от «26» сентября 2023 года).



Т.Ф.Ражабов

Председатель научного совета
по присуждению учёных степеней, д.б.н.

М.С.Кузиев

Ученый секретарь научного совета
по присуждению учёных степеней, (PhD), доцент

З.Т.Ражамуродов

Председатель научного семинара при научном
совете по присуждению учёных степеней,
д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотации диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время во всем мире наблюдается тенденция сокращения численности насекомых. Как известно, насекомые, образуя сложные трофические сети, имеют первостепенное значение в структуре и функции естественных сообществ, а также влияют на коэволюцию других организмов. Однако, по утверждению многих ученых, каждый год численность насекомых сокращается на 1-2%. За последние 150 лет в мире исчезло 5-10% насекомых, то есть от 250000 до 500000 видов¹. Жуки или жесткокрылые, являясь наиболее разнообразной и находящиеся в биологическом прогрессе группой насекомых, составляют 38% (387100 видов) всех известных насекомых. Характеризующиеся высоким экологическим разнообразием и видовым составом, герпетобионты участвуют в миграции, создаваемых растениями, питательных веществ в почве и являются важной и неотъемлемой частью трофических связей. Если часть из них, являясь хищниками, играют огромную роль в снижении численности вредных насекомых и сорняков, то другая часть, будучи вредителями сельскохозяйственных растений, имеют высокое хозяйственное значение.

В мире проводятся исследования по разнообразию герпетобионтных жесткокрылых, по фауне отдельных территорий и закономерностям его формирования, по распространению, по выяснению их роли в естественных биоценозах и агроландшафтах. В связи с этим особое внимание уделяется изучению видового состава герпетобионтных жуков пустынных биоценозов и агроценозов, анализу таксономической и экологической структуры фауны, сезонной динамике активности, выявлению наблюдающих изменений в фауне герпетобионтов, определению редких и исчезающих видов, разработка мер по их охране, а также по изучению происхождения и формирования пустынной фауны.

В нашей Республике достигнуты определенные результаты по выяснению разнообразия основных таксонов герпетобионтных жуков, их распределению по разным ландшафтам и по отдельным биоценозам, по фауне герпетобионтов агроценозов культурных растений, плодовых садов, по выяснению роли герпетобионтов как вредителей сельскохозяйственных культур и как энтомофагов вредителей, а также по разработке методов использования герпетобионтов в экологическом мониторинге. В Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан² определены задачи «...предотвращение экологических проблем, наносящих урон состоянию окружающей среды, здоровью и генофонду населения»². Исходя из этих задач, изучение разнообразия, экологии и значения в биоценозах герпетобионтных жуков имеет важное значение.

¹ Cardoso, P., Barton, P.S., Birkhofer, K., Chichorro, F., Deacon, C., Fartmann, T., et al. Scientists' warning to humanity on insect extinctions. *Biological Conservation*, 2020, V. 242, 108426. <https://doi.org/10.1016/j.biocon.2020.108426>.

² Указ Президента Республики Узбекистан, от 07.02.2017 г. № УП-4947 "О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан".

